IQTISODIYOTNING REAL SEKTORLARIDA SOLIQ SIYOSATING TADBIRKORLIK FAOLIYATI VA KICHIK BIZNES SUB`EKTLARIGA TA`SIRI

Rustamova Xurshida Shuxratovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti
www.shuxratovna9697@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23953428

Annotatsiya. O`zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini real sektorlarda tadbirkorlik faoliyati va kichik biznes sub`ektlarining faoliyati jarayonida soliq siyosatining o`rni, yangi tashkil etilgan korxonalar uchun preferensiyalar joriy etishi hamda o`rganish jarayonida soliq yukini kamaytirish, soliq imtiyozlari tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi aniqlangan.

Kalit so`zlari. Kichik biznes subyektlari, tadbirkorlar, iqtisodiyotning real sektori, soliq siyosati, soliq yuki.

Iqtisodiyotning real sektori- mamlakatda tovar va xizmatlarni bevosita ishlab chiqaruvchi tarmoqlar majmuasini ifodalaydi. Sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport va boshqa ishlab chiqarish yo‘nalishlari real sektorning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Mazkur sektorning barqaror rivojlanishi iqtisodiy o‘sish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunga kelib iqtisodiyotni modernizatsiya qilish hamda liberallashtirish jarayonida tadbirkorlik faoliyati mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadbirkorlik subyektlari yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining daromadlarini oshirish, ishlab chiqarish va xizmatlar hajmini kengaytirish orqali iqtisodiy faollikni ta’minlaydi. Shu sababli tadbirkorlik faoliyati uchun qulay iqtisodiy va huquqiy muhit yaratish davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridanbiridir.

Tadbirkorlik faoliyatini oshirishda soliq siyosati muhim o`rinni egallaydi. Bunda soliq siyosatining tadbirkorlik faoliyatidagi asosiy vazifalaridan biri davlat budjetining daromad qismini shakllantirish bilan bir qatorda iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirishdan iborat. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun yaratilgan soliq sharoitlari ularning faoliyatini kengaytirishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Tadbirkorlik faoliyatiga soliq siyosatining ta’sirini bir nechta yo‘nalishda ko‘rish mumkin. Birinchidan, soliq stavkalari korxonaning moliyaviy holatiga ta’sir qiladi. Soliq yukining oshishi tadbirkorlik subyektining foyda miqdorini kamayishiga olib kelishi mumkin. Bu esa investitsiya kiritish, ishlab chiqarishni kengaytirish yoki yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyatlariga salbiy ta’sir qilishi ehtimoli mavjud.

Ikkinchidan, O‘zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlikni soliqqa tortish amaliyoti mustaqillikdan buyon qator islohotlar orqali shakllanib kelmoqda. Ilk bosqichlarda tadbirkorlar umumiy soliq rejimlari asosida faoliyat yuritgan bo‘lib, bu ular uchun ortiqcha ma’muriy to‘siqlar va yuqori soliq yukini keltirib chiqargan. Keyinchalik soliq tizimini soddalashtirish va takomillashtirish jarayonida soliq imtiyozlari tadbirkorlikni rivojlantirishning eng muhim vositasi hisoblanadi. Ayrim faoliyat turlari, hududlar yoki tadbirkorlik subyektlariga beriladigan soliq imtiyozlari ularning xarajatlarini kamaytirib,

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

rivojlanish uchun qo‘shimcha moliyaviy imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari, yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati tadbirkor tomonidan xodimlarni yollash huquqisiz, mulk huquqi asosida o’ziga tegishli bo’lgan yoki foydalanish huquqi asosidagi mol-mulk mustaqil ravishda amalga oshirilgan. Keyinchalik , 2026-yilning 1-yanvardan yakka tartibdagi tadbirkorlarga ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdorida to`lash va bir nafardan besh nafargacha ishchini yollash huquqi berildi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda soliq tizimini takomillashtirish va tadbirkorlik subyektlari uchun qulay sharoit yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Soliq ma’murchiligini raqamlashtirish, elektron xizmatlarni rivojlantirish va tadbirkorlarning soliq majburiyatlarini bajarishini yengillashtirish ushbu yo‘nalishdagi muhim jarayonlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, O`zbekiston Respublikasi hududida sentyabr holatiga ko`ra, tadbirkorlar va kichik biznes egalari uchun soliq siyosatida bir qator yengillilar kiritildi. Xususan, kichik biznes uchun soliq nazorati yumshatildi va avtokameral nazorat ko‘proq servis shakliga o‘tkazildi. Bu esa kichik biznes subyektlari uchun faoliyatini yanada yahshilashda sharoit yaratadi. Shu bilan birgalikda tadbirkorlar faoliyatida jarayonida tegishli xavf aniqlansa, tadbirkorga kamchiliklarni tuzatish uchun 1 oy muddat beriladi. Bu esa tadborkorlarning faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo`lgan soliq riskini oldini oladi.

Yangi tashkil etilgan tadbirkorlarga faoliyatini boshlagan dastlabki 6 oyda soliq va moliyaviy hisobotlarni topshirishda bepul xizmat ko‘rsatiladi va ushbu jarayonda yuzaga keladigan har qanday savollarga va muammoli vaziyatlarga soliq mutaxasislari tomonida tushuntirishlar olib boriladi. Bundan tashqari, 2028-yil 1-yanvargacha kichik biznesda soliq xavfi 500 mln so‘mgacha bo‘lsa, soliq auditi o‘tkazilmasligi, 100 mln so‘mgacha bo‘lsa, sayyor soliq tekshiruvi o‘tkazilmasligi belgilangan. 2026-yildan boshlab ayrim kichik biznes subyektlari uchun soliq hisobini yuritish va hisobot topshirish jarayonlari soddalashtirildi. Shuningdek, ayrim faoliyat turlari uchun qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblashning soddalashtirilgan tartibi joriy etilib, tadbirkorlik subyektlariga soliq majburiyatlarini bajarishda qo‘shimcha qulayliklar yaratildi.

Ushbu soliq imtiyozlari kichik biznesning rivojlanishini rag‘batlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini kengaytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, soliq ma’muriyatchiligining soddalashtirilishi tadbirkorlarning vaqt va moliyaviy xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar: Ayrim tadbirkorliklar va kichik biznes sub`ektlari soliq qonunchiligidagi o‘zgarishlarni yetarli darajada bilmasligi, soliq hisob-kitoblarini yuritishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shu sababli soliq siyosatining samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq:

- tadbirkorlar uchun soliq qonunchiligi bo‘yicha bepul tushuntirish xizmatlarini kengaytirish;
- soliq hisobotlarini topshirish jarayonlarini yanada raqamlashtirish;
- kichik biznes uchun soliq imtiyozlaridan foydalanish tartibini soddalashtirish;
- yangi tashkil etilgan biznes subyektlariga dastlabki faoliyat davrida maslahat va axborot ko‘magini kuchaytirish.
- soliq ma’murchiligini soddalashtirish bilan bir qatorda nazorat mexanizmlarini ham shaffoflashtirish lozim

Xulosa qilib aytganda, tadbirkorlar va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashda soliq siyosati muhim ahamiyatga ega. Tadbirkorlarga berilayotgan soliq yengilliklari ularning xarajatlarini kamaytirish, faoliyatini kengaytirish va yangi ish o‘rinlari yaratish imkonini beradi. Soliq hisoboti va to‘lovlarining soddalashtirilishi esa tadbirkorlar uchun yanada qulay sharoit yaratadi. Shuning uchun kelajakda ham

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

kichik biznes uchun soliq tizimini yanada soddalashtirish va mavjud imtiyozlarni takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy me'moriy uyi, 2020.
2. O` zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-247-son qarori, 12.08.2025
3. Qodirov, D. (2018). Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning institutsional muammolari. Toshkent moliya instituti ilmiy axborotnomasi.
4. https://www.lex.uz/ru/docs/-7681520

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.